

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## **GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI**

**Aliyeva Dilbar Valiyevna**

Alfraganus universiteti, o'qituvchi, dotsent,  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, mustaqil izlanuvchi.

**e-mail:** [Dilbaraliyeva@gmail.com](mailto:Dilbaraliyeva@gmail.com) **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0004-0593-1426>

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada Guljamol Asqarova she'riyatida vatanparvarlik g'oyalarining falsafiy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoiraning she'rlari asosida Vatan g'oyasining badiiy-falsafiy mazmuni ochib beriladi. Vatan tushunchasining geografik makondan ma'naviy-ruhiy qadriyat, tarixiy xotira, milliy o'zlik va inson borlig'i bilan uzviy bog'liq ontologik hodisaga aylanish jarayoni tadqiq etiladi. Tahlil davomida Vatan, inson, millat, xotira, ruh, uy, oston, tuproq, bayroq kabi poetik obrazlarning mazmuniy-falsafiy funksiyalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida Guljamol Asqarova poetikasida vatanparvarlik g'oyasi insonparvarlik, ma'naviy kamolot, milliy o'zlik, tarixiy xotira va shaxsning Vatan bilan ontologik aloqasi kabi tushunchalar bilan uzviy birlikda shakllanishi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, falsafiy transformatsiya, milliy o'zlik, tarixiy xotira, ontologiya, aksiologiya, insonparvarlik, poetik obraz.

## **ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИДЕЙ ПАТРИОТИЗМА В ПОЭЗИИ ГУЛЖАМОЛ АСКАРОВОЙ**

**Алиева Дилбар Валиевна**

Университет Alfraganus, преподаватель, доцент,  
Институт социально-духовных исследований, независимый исследователь.

### **Аннотация.**

В статье анализируется философская трансформация идей патриотизма в поэзии Гулжамол Аскаровой. На материале стихотворений поэтессы раскрывается художественно-философское содержание идеи Родины. Исследуется процесс трансформации понятия Родины из географического пространства в духовно-нравственную ценность и онтологический феномен, неразрывно связанный с исторической памятью, национальной идентичностью и человеческим бытием. В ходе анализа особое внимание уделяется содержательно-философским функциям таких поэтических образов, как Родина, человек, нация, память, дух, дом, порог, земля и флаг. В результате исследования обосновывается, что в поэтике Гулжамол Аскаровой идея патриотизма формируется в неразрывном единстве с такими понятиями, как гуманизм, духовное совершенствование, национальная идентичность, историческая память и онтологическая связь личности с Родиной.

**Ключевые слова:** патриотизм, философская трансформация, национальная идентичность, историческая память, онтология, аксиология, гуманизм, поэтический образ.

## **THE PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF PATRIOTIC IDEAS IN GULJAMOL ASQAROVA'S POETRY**

**Aliyeva Dilbar Valiyevna**

Alfraganus University, Lecturer, Associate Professor,  
Institute for Social and Spiritual Research, Independent Researcher.

### **Abstract.**

This article analyzes the philosophical transformation of patriotic ideas in the poetry of Guljamol Asqarova. Drawing on the poet's works, the study explores the literary and philosophical meaning of the concept of the Motherland. It examines the transformation of the Motherland from a geographical space into a spiritual value and an ontological phenomenon intrinsically connected with historical memory, national identity, and human existence. Particular attention is paid to the semantic and philosophical functions of such poetic images as the Motherland, the individual, nation, memory, spirit, home, threshold, soil, and flag. The study demonstrates that in Guljamol Asqarova's poetics, the idea of patriotism is formed in close interrelation with humanism, spiritual

development, national identity, historical memory, and the individual's ontological connection with the Motherland.

**Keywords:** patriotism, philosophical transformation, national identity, historical memory, ontology, axiology, humanism, poetic image.

**Kirish.** Zamonaviy falsafiy tafakkurda badiiy ijodni ijtimoiy ong va milliy o'zlik masalalari bilan bog'liq holda o'rganish aksiologik paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, she'riyat faqat estetik hodisa emas, balki inson va jamiyat, shaxs va millat, o'tmish va kelajak o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi falsafiy-mafkuraviy tizimdir. Ayniqsa, vatanparvarlik g'oyasi millat ma'naviy hayotining o'zagini tashkil etuvchi, tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllanib, o'zgarib boruvchi falsafiy kategoriya sifatida badiiy tafakkurda alohida ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik tushunchasi mutlaq va o'zgarmas hodisa emas, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda tarixiy-falsafiy evolyutsiyani boshdan kechiruvchi dinamik kategoriyadir. Shu bois vatanparvarlik g'oyasining badiiy tafakkurda, xususan, muayyan ijodkor merosida qanday falsafiy transformatsiyalarni bosib o'tganini tadqiq etish dolzarb ilmiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi [2].

Iste'dodli shoira Guljamol Asqarova 1978-yil 5-mart kuni Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Beshdarg'at qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. 2001-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Shoiraning "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati" kabi she'riy kitoblari nashr etilgan [6].

Guljamol Asqarova zamonaviy o'zbek she'riyatida Vatan mavzusiga o'ziga xos falsafiy teranlik bilan yondashuvchi ijodkorlardan biridir. Shoira ijodida Vatan tushunchasi bir tekis, statik holatda emas, balki turli davrlarga xos ijtimoiy-mafkuraviy sharoit, shaxsiy va ijtimoiy tajriba hamda ma'naviy izlanishlar ta'sirida tobora chuqurlashib, yangi falsafiy mazmun kasb etib boruvchi kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Uning lirik qahramoni Vatanni dastlab romantik-hissiy tarzda, so'ngra ekzistensial-shaxsiy, keyinchalik esa umuminsoniy-ontologik saviyada anglaydi. Vatan uning she'rlarida nafaqat geografik makon yoki ijtimoiy-siyosiy tushuncha, balki inson borlig'ining ma'naviy negizi, shaxs o'zligini anglashining asosiy manbasi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda vatanparvarlik g'oyasi oddiy his-tuyg'u ifodasidan chuqur falsafiy-aksiologik qadriyatga aylanib boradi.

Maqolaning asosiy maqsadi Guljamol Asqarova she'rlarida vatanparvarlik g'oyalarining falsafiy mazmunini, uning tarixiy-mafkuraviy va ma'naviy-aksiologik jihatdan bosib o'tgan transformatsiya bosqichlarini aniqlash, ushbu g'oyalarning shoira ijodiy tafakkurida qanday falsafiy kategoriyalar — borliq, o'zlik, qadriyat, erk va ma'naviyat orqali namoyon bo'lishini tahlil qilishdan iborat.

#### **Adabiyotlar tahlili.**

Guljamol Asqarova ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xos badiiy-estetik hodisalaridan biri sifatida turli yo'nalishlarda o'rganib kelinmoqda. Mavjud tadqiqotlarda shoiraning poetik tafakkuri, lirik kechinmalari, obraz yaratish mahorati, badiiy uslubi, estetik qarashlari hamda she'riyatida ifodalangan umuminsoniy qadriyatlar muayyan jihatlardan tahlil qilingan. Xususan, O. Hasanova tadqiqotida Guljamol Asqarova she'riyatidagi adabiy-estetik kategoriyalar, jumladan, go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik kabi tushunchalarning badiiy ifodasi hamda shoiraning obraz yaratish mahorati yoritilgan. Tadqiqotda shoiraning poetik tafakkurining o'ziga xosligi va uning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi estetik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi [3].

O. Maqsudovanning "Guljamol Asqarova she'rlarining badiiy talqini" nomli maqolasida esa shoiraning ijodiy ruhiyati, she'rlarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi va ularda aks etgan umuminsoniy fikr hamda tuyg'ular masalasi tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqot Asqarova she'riyatining badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini umumiy poetik nuqtayi nazardan anglash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi [4].

Shuningdek, S. Muslihiddinovanning Guljamol Asqarova she'riyatidagi lirik kechinmalar talqiniga bag'ishlangan tadqiqotida shoiraning ichki ruhiy holatlari, lirik "men"i va kechinmalarining badiiy ifodasi masalalariga e'tibor qaratiladi. Bu tadqiqot Asqarova poetikasining hissiy-psixologik qatlamini anglashda muhim ahamiyatga ega [5].

Shoiraning asarlari va she'riy merosi bilan bog'liq manbalarda ham Vatan, milliy o'zlik, insoniy qadriyatlar va ma'naviy kechinmalar muhim mavzulardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Vatan va ostona" she'rida Vatan "beshik", "ona", "ostona", "yurak" kabi obrazlar orqali insonning shaxsiy hayoti va ma'naviy olami bilan bog'lanadi. Shoiraning Vatan mavzusiga munosabati keyingi yillarda berilgan suhbatlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, ularda Vatan tushunchasining inson hayotidagi alohida ma'naviy o'rni ta'kidlanadi.

Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirganda, Guljamol Asqarova ijodi badiiy-estetik, lirik-psixologik va umumg'oyaviy yo'nalishlarda muayyan darajada o'rganilganini ko'rish mumkin. Biroq mavjud ishlarining asosiy e'tibori shoiraning umumiy poetik olami, lirik kechinmalari, estetik kategoriyalari va badiiy mahoratiga qaratilgan. Vatan mavzusi esa ko'proq umumiy g'oyaviy yoki badiiy mazmun doirasida yoritilgan bo'lib, vatanparvarlik g'oyasining turli davr va she'riy matnlar doirasida qanday falsafiy transformatsiyaga uchrashi, uning tashqi da'vatkorlikdan ichki ma'naviy va ontologik anglash darajasiga tomon rivojlanishi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tizimli o'rganilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada Guljamol Asqarovanning "Da'vat", "Vatan va ostona" hamda boshqa Vatan mavzusidagi she'rlari o'zaro qiyosiy asosda tahlil qilinib, ulardagi vatanparvarlik g'oyasining falsafiy mazmuni va poetik evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy yangiligi vatanparvarlikni faqat ijtimoiy-g'oyaviy tushuncha sifatida emas, balki aksiologik, ontologik, ekzistensial va ma'naviy hodisa sifatida ko'rib chiqish hamda uning poetik

transformatsiyasini izchil ko'rsatishdan iborat.

### **Metodologiya.**

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida Guljamol Asqarova she'rlarida vatanparvarlik g'oyalarining falsafiy transformatsiyasini tahlil qilishga imkon beruvchi ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, tarixiy-falsafiy yondashuv asosida shoira ijodida Vatan tushunchasining shakllanishi, uning turli ijodiy davrlarga xos mazmuniy o'zgarishlari hamda zamonaviy she'riy tafakkurdagi yangi talqinlari o'rganildi. Ushbu yondashuv shoira she'rlaridagi vatanparvarlik g'oyasining bir martalik, statik ifoda emas, balki ijtimoiy-mafkuraviy sharoit va shaxsiy ma'naviy tajriba ta'sirida bosqichma-bosqich o'zgarib boruvchi dinamik jarayon ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Germenevtik tahlil metodi yordamida Guljamol Asqarovaning "Uyg'otuvchi alla" to'plamidagi she'riy matnlarda ifodalangan Vatan obrazi, milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarining ramziy-falsafiy mazmuni ochib berildi. Bu metod she'riy matn ortidagi chuqur ma'no qatlamlarini, muallifning Vatan haqidagi ichki kechinmalarini falsafiy nuqtayi nazardan talqin qilish, matnning zohiriy (badiiy) qatlami bilan botiniy (falsafiy-g'oyaviy) qatlami o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi.

Falsafiy tahlil usuli asosida Guljamol Asqarova she'rlarida vatanparvarlik g'oyalarining aksiologik mohiyati, uning lirik qahramon ma'naviy hayotidagi o'rni, shuningdek, shaxs va millat, individual va kollektiv ong o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashdagi ahamiyati tadqiq etildi. Shu bilan birga, Vatan tushunchasining ontologik jihati, uning shaxs borlig'ining ma'naviy negizi sifatidagi mavqeyi alohida tahlil predmetiga aylantirildi.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish va ilmiy xulosalarni ishlab chiqishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, shoiraning turli she'rlaridagi Vatan g'oyasiga oid alohida jihatlar tahlil orqali ajratib o'rganilib, so'ngra ular yaxlit falsafiy-nazariy xulosalar shaklida birlashtirildi. Alohida she'riy namunalardan umumiy qonuniyatlarga induksiya orqali, umumfalsafiy kategoriyalardan aniq badiiy misollarga esa deduksiya orqali o'tish tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Tizimli yondashuv esa vatanparvarlik g'oyasini shoira dunyoqarashining boshqa falsafiy-ma'naviy kategoriyalari — erk, o'zlik, ma'naviyat va imyon bilan uzviy bog'liqlikda, yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Mazkur metodlar majmuasi asosida Guljamol Asqarova she'rlarida vatanparvarlik g'oyalarining transformatsiyasi, uning falsafiy mazmuni va badiiy tafakkurdagi namoyon bo'lish xususiyatlari kompleks tarzda yoritildi.

### **Muhokama va natijalar.**

Guljamol Asqarovaning 1999-yilda yozilgan "Da'vat" she'rida:

"Ahli odamiyat! Vatandek qalqing,

Va jonni beringiz uning yodiga.

Vatan tuprog'ini tiz cho'kib o'ping,

Qaddingizni rostlang, Vatan oldida..." [1]

Guljamol Asqarovaning she'ridan olingan mazkur misralarda vatanparvarlik g'oyasi bevosita murojaat, undov va da'vat shakllari orqali ifodalangan. She'rda Vatan inson hayotining muhim ma'naviy tayanchi, xalqning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini belgilovchi yuksak qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shoira vatanparvarlikni shaxsning yurt oldidagi sadoqati, mas'uliyati va fidoyiligi bilan bog'laydi.

Mazkur misralarda Vatan obrazining mazmuni "qalqon", "tuproq", "jon", "qadd" kabi obraz va tushunchalar orqali kengaytiriladi. "Qalqon" obrazi Vatanning inson uchun himoya va tayanch vazifasini ifodalasa, Vatan tuprog'ining ulug'lanishi uning oddiy geografik makon emas, balki tarix, xotira va milliy mansublikni mujassamlashtiruvchi muqaddas qadriyat ekanini anglatadi. Shu tariqa Vatan tushunchasi moddiy makon chegarasidan chiqib, insonning ma'naviy borlig'i bilan uzviy bog'langan hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

She'rda Vatan uchun jon fido qilishga oid da'vat vatanparvarlikning yuqori darajadagi fidoyilik va sadoqat mezonini sifatida ifodalanadi. Bunda shaxsiy manfaatdan ko'ra yurt va xalq manfaatini ustuvor qo'yish g'oyasi ilgari suriladi. Vatan oldida bosh egish va ayni paytda "qaddni rostlash" kabi qarama-qarshi poetik harakatlar esa vatanparvarlikning mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Bir tomondan, bu holat Vatanga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromni, ikkinchi tomondan esa insonning or-nomusi, mas'uliyati va yurt oldidagi munosib mavqeyini anglatadi.

"Ahli odamiyat!" tarzidagi murojaat esa she'rda vatanparvarlik masalasining kengroq umuminsoniy mazmunda qo'yilganini ko'rsatadi. Shoira Vatanga muhabbatni faqat muayyan hududga yoki tor doiradagi manfaatlariga bog'lamaydi, balki uni insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan uyg'un holda talqin qiladi. Shu jihatdan vatanparvarlik insonparvarlik, sadoqat, fidoyilik, mas'uliyat va milliy o'zlik kabi qadriyatlar bilan bir butunlik hosil qiladi.

1999-yilda yaratilgan "Da'vat" she'ridagi ushbu poetik ifodalar vatanparvarlik g'oyasining da'vatkor va ijtimoiy-faol shakldagi namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Biroq bu da'vat faqat tashqi chaqiriq darajasida qolmay, Vatan tushunchasining muqaddasligi, insonning yurt oldidagi burchi va ma'naviy mas'uliyati haqidagi falsafiy qarashlar bilan boyitilgan. Shu ma'noda "Da'vat"dagi vatanparvarlik konsepsiyasini shoiraning ijodida Vatan masalasining keyinchalik yanada chuqurroq shaxsiy va falsafiy mazmun kasb etishiga zamin yaratgan poetik bosqichlardan biri sifatida baholash mumkin.

"Bu shunday, jonlarga berilmas xilqat,

Uningdek aziz yo'q inson zotiga.

Agar tuproqlarga qorishsangiz ham,

Ruhingizni tiklang, Vatan oldida..." [1]

Mazkur misralarda Vatan haqidagi g'oya yanada chuqur falsafiy mazmun kasb etib, uning inson hayotidagi o'rni ontologik va ma'naviy jihatdan asoslanadi. Agar avvalgi misralarda Vatanga sadoqat va fidoyilik da'vat shaklida ifodalangan bo'lsa, bu misralarda Vatan nima uchun inson uchun yuksak va beqiyos qadriyat ekani ochib beriladi.

"Xilqat" tushunchasi orqali Vatan oddiy geografik makon emas, balki o'ziga xos va muqaddas borliq sifatida tasavvur qilinadi. Bu yondashuv Vatan tushunchasini insonning ijtimoiy hayotidan tashqariga olib chiqib, uni inson mavjudligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy hodisa darajasiga ko'taradi. Vatan inson tomonidan yaratiladigan yoki almashtiriladigan oddiy makon emas, balki shaxsning o'zligi, tarixiy xotirasi va ma'naviy mansubligini belgilovchi fundamental qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

"Jonlarga berilmas" hamda "uningdek aziz yo'q inson zotiga" kabi ifodalar Vatan tushunchasining bebaholigi va almashtirib bo'lmazligini ta'kidlaydi. Shoir bu orqali Vatan uchun muayyan moddiy yoki boshqa bir ekvivalent mavjud emasligini ko'rsatadi. Demak, Vatan iqtisodiy yoki moddiy mezonlar bilan o'lchanadigan qadriyat emas, balki inson uchun mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qadriyatdir. Shu jihatdan Vatan insonning qadriyatlar tizimida alohida va yuksak o'rin egallaydi.

Parchaning so'nggi misralarida Vatan va inson mavjudligi o'rtasidagi munosabat yanada chuqurlashadi. "Tuproqlarga qorishmoq" insonning jismoniy mavjudligi o'tkinchi ekanini anglatadi. Biroq "ruhingizni tiklang" da'vati orqali insonning ma'naviy mavjudligi jismoniy hayot bilan cheklanmasligi haqidagi fikr ilgari suriladi. Bu o'rinda Vatan insonning individual hayotidan uzoqroq davom etuvchi ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning hayoti yakunlanganidan keyin ham uning xotirasi, ezgu ishlari va ruhiy merosi Vatan va xalq xotirasida davom etishi mumkinligi anglashiladi.

Individual va kollektiv borliq o'rtasidagi munosabat ham muhim o'rin tutadi. Insonning shaxsiy hayoti cheklangan va o'tkinchi bo'lsa, Vatan timsolida mujassamlashgan tarixiy va milliy borliq davomiylik xususiyatiga ega. Inson o'z hayoti orqali Vatan bilan bog'lanadi, Vatan esa uning mavjudligiga ma'no, mansublik va davomiylik baxsh etadi. Shu sababli Vatan shaxsiy hayotdan ustun turuvchi, avlodlarni birlashtiruvchi ma'naviy makon sifatida talqin qilinadi.

"Birodar, millatning jon tomirisiz,  
Mehringizni sotmang gullar totiga.  
Vatan bayrog'ini yurakka qadang,  
Bayroqni ko'taring, millat oldida..." [1]

Mazkur parchada millat va Vatan tushunchalari insonning shaxsiy hayoti, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Shoir millatni alohida insonlardan tashkil topgan oddiy ijtimoiy birlik sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit ma'naviy organizm sifatida tasavvur etadi. "Millatning jon tomirisiz" ifodasida shaxsning millat hayotidagi o'rni alohida ta'kidlanib, inson milliy birlikdan tashqarida emas, balki uning ajralmas va hayotiy zarur qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda shaxsning ma'naviy faoliyati, sadoqati va mas'uliyati millatning umumiy hayoti bilan bog'lanadi. "Mehringizni sotmang gullar totiga" jumlasida esa insonning haqiqiy qadriyatlar bilan vaqtinchalik manfaat va zavqlar o'rtasidagi tanlovi masalasi ilgari suriladi. "Gullar toti" ramziy ma'noda o'tkinchi va yuzaki zavqlarni anglatib, unga qarshi millat va Vatanga bo'lgan samimiy mehr qo'yiladi. Shoir shu orqali insonni o'zining chuqur ma'naviy ildizlari va milliy mansubligidan uzoqlashtirishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik manfaatlardan ogohlantiradi. Natijada millatga sadoqat shaxsning ma'naviy barqarorligi va qadriyatlarga sodiqligi bilan bog'lanadi. "Vatan bayrog'ini yurakka qadang" jumlasida Vatan ramzining tashqi belgidan ichki ma'naviy qadriyatga aylanishi kuzatiladi. Bayroq bu yerda davlat yoki millatning tashqi ramzi bo'lishdan tashqari, insonning qalbi va ongida mujassamlashgan Vatan timsoliga aylanadi. Ya'ni vatanparvarlik shunchaki tashqi ramzlarni e'zozlash bilan cheklanmay, ularni shaxsning ichki e'tiqodi, o'zligi va ma'naviy dunyosining bir qismiga aylantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, "Bayroqni ko'taring, millat oldida" jumlasida esa ichki e'tiqodning amaliy ifodasini anglatib, inson qalbida shakllangan Vatanga va millatga sadoqat faqat shaxsiy tuyg'u bo'lib qolmasdan, ijtimoiy faoliyat va mas'uliyat orqali namoyon bo'lishi kerak. Demak, shoiraning talqinida haqiqiy vatanparvarlik ichki ishonch va tashqi amal birligiga asoslanadi. Shaxs Vatan va millatni qalban anglash bilan birga, o'z e'tiqodini amaliy faoliyati orqali tasdiqlashi lozim.

"Tog'lardek yuksaling, Vatan chorlasa,  
Bobolar o'tdilar erk deb g'amdiyda.  
Bag'ringizga bosing Vatan so'zini,  
Oyoqqa qalqingiz, Vatan oldida."

Mazkur misralarda vatanparvarlik g'oyasi yanada kengayib, insonning Vatan oldidagi mas'uliyati, tarixiy xotira, ajdodlar merosi va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan bog'lanadi. Shoir Vatanga munosabatni faqat hissiy tuyg'u sifatida emas, balki insondan qat'iyat, yuksak ma'naviyat va amaliy harakatni talab qiluvchi qadriyat sifatida talqin etadi. "Tog'lardek yuksaling" ifodasida tog' obrazi mustahkamlik, ulug'vorlik va yuksaklik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Insonning Vatan chorloviga javoban tog'dek yuksalishi nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol topishini anglatadi. Bunda vatanparvarlik insonni oddiy kundalik manfaatlardan yuksalib, yurt taqdiri bilan bog'liq mas'uliyatni anglashga undovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. "Vatan chorlasa" ifodasi esa Vatan obraziga faol mazmun beradi. Vatan bu yerda shunchaki e'zozlanadigan makon emas, balki insonni harakatga chorlaydigan, undan javob va sadoqat talab qiladigan ma'naviy kuch sifatida tasvirlanadi. Shu orqali inson va Vatan o'rtasidagi munosabat o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka asoslangan aloqaga aylanadi. Vatan chorlaydi, inson esa unga o'z amali va fidoyiligi bilan javob beradi. "Bobolar o'tdilar erk deb g'amdiyda" misrasi vatanparvarlik g'oyasini tarixiy xotira bilan bog'laydi. Ajdodlarning ozodlik yo'lida chekkan zahmatlari va qurbonliklari bugungi avlod uchun ma'naviy meros sifatida talqin qilinadi. Bu o'rinda "erk" tushunchasi asosiy qadriyatlardan biri sifatida namoyon bo'lib, Vatanga sadoqatni ajdodlar

tomonidan qo'lg'a kiritilgan ozodlikni qadrlash va uni davom ettirish mas'uliyati bilan bog'laydi. Demak, bugungi avlodning vatanparvarligi tarixdan uzilgan hodisa emas, balki avlodlar o'rtasidagi ma'naviy davomiylik asosida shakllanadigan qadriyatdir.

"Bag'ringizga bosing Vatan so'zini" misrasida esa Vatan tushunchasining insonning ichki dunyosiga singdirilishi ifodalaniadi. Bu yerda "Vatan" so'zi shunchaki nom yoki tushuncha emas, balki inson qalbida muqim o'rin egallashi lozim bo'lgan ma'naviy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Vatan so'zini bag'riga bosish — uni qalban qabul qilish, o'zligini u bilan bog'lash va unga daxldorlikni chuqur his etish ma'nolarini anglatadi. Yakunda "Oyoqqa qalqingiz, Vatan oldida" misrasi esa mazkur fikrlarni faol harakat g'oyasi bilan yakunlaydi. Vatan oldida oyoqqa qalqish insonning passiv holatdan faol pozitsiyaga o'tishini, yurt taqdiriga befarq bo'lmasligini va zarur vaziyatda amaliy harakatga tayyor turishini anglatadi. Shu tariqa Vatanga bo'lgan hurmat faqat ichki tuyg'u yoki e'tiqod sifatida emas, balki amalda namoyon bo'ladigan fuqarolik mas'uliyati sifatida shakllanadi.

Shoiraning 2006-yilda yozilgan "Vatan va ostona" she'rida esa:

"Assalomu alaykum! Ey moviy osmon,  
Sen mening muqaddas beshigim Vatan.  
Meni porloq kunlar chorlagan zamon,  
Dunyoga ochilgan eshigim — Vatan.  
Sen menga azizsan ona sutidek,  
Go'daklik yig'imga guvoh bo'lganim.  
Ilk bor qadamimni qutlab, quvonib,  
Sevgim sirlaridan ogoh bo'lganim.  
Yurt kezib sog'insam tuproq gardini,  
Sog'inchimdan ko'zi yoshlangan Vatan.  
Mening yuragimga tutashib yo'li,  
Mening ostonamdan boshlangan Vatan..." [1]

Guljamol Asqarovaning "Vatan va ostona" she'rida Vatan tushunchasi oddiy geografik hudud yoki tug'ilib-o'sgan makon doirasida emas, balki insonning mavjudligi, xotirasi, ruhiyati va ma'naviy o'zligini shakllantiruvchi asosiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shoira Vatan obrazini inson hayotining boshlanishi va shakllanishi bilan bog'lab, uning shaxsiy borliqdagi o'rnini chuqurlashtiradi. "Sen mening muqaddas beshigim Vatan" misrasidagi "beshik" obrazi inson hayotining boshlanish nuqtasini ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Beshik qanday qilib insonning ilk hayotiy tajribalari bilan bog'liq bo'lsa, Vatan ham lirik qahramonning shakllanishi, dunyoni anglash jarayoni va shaxsiy o'zligining qaror topishida boshlang'ich manba vazifasini bajaradi. Shu ma'noda Vatan insonning tashqi hayot muhiti emas, balki uning borliqdagi ilk mansublik makoni sifatida namoyon bo'ladi.

"Dunyoga ochilgan eshigim — Vatan" misrasida esa Vatan va insonning olamni idrok etishi o'rtasidagi munosabat yanada kengroq mazmun kasb etadi. "Eshik" obrazi ichki va tashqi olam o'rtasidagi chegarani ifodalovchi ramz sifatida Vatan tushunchasini insonning dunyo bilan munosabatga kirishish vositasi darajasiga olib chiqadi. Insonning jamiyat, madaniyat, tarix va atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlari aynan o'z Vatani orqali shakllanadi. Shu sababli Vatan lirik qahramon uchun dunyoni anglashning boshlang'ich va tabiiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. She'rda Vatan obrazining ona bilan uyg'unlashuvi ham muhim ma'naviy mazmun kasb etadi. "Sen menga azizsan ona sutidek" misrasida Vatanga bo'lgan muhabbat ona suti timsoli orqali ifodalaniadi. Ona suti insonning jismoniy hayoti uchun tabiiy manba bo'lgani kabi, Vatan ham shaxsning ma'naviy shakllanishi uchun zarur bo'lgan ruhiy manba sifatida talqin qilinadi. Natijada Vatan va ona tushunchalari bir-birini mazmunan to'ldirib, hayot, mehr, ildiz va muqaddaslik kabi umumiy semantik qatlamlarni hosil qiladi.

"Go'daklik yig'imga guvoh bo'lganim. Ilk bor qadamimni qutlab, quvonib" misralarida Vatan obrazining personifikatsiyasi yanada kuchayadi. Vatan lirik qahramon hayotidagi dastlabki voqealarga guvoh bo'lgan va ularning ma'naviy mazmunini o'zida saqlagan faol obraz sifatida tasvirlanadi. Go'daklik, ilk qadam va dastlabki hayotiy tajribalar bilan bog'liq xotiralar Vatan tushunchasiga singdirilib, uni shaxsiy xotira makoniga aylantiradi. Shu tariqa Vatan geografik makondan tashqari, insonning o'z hayot yo'lini anglashida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xotira va kechinmalar makoni sifatida shakllanadi.

"Yurt kezib sog'insam tuproq gardini, Sog'inchimdan ko'zi yoshlangan Vatan" misralarida esa Vatan bilan inson o'rtasidagi ruhiy munosabatning murakkabligi ochib beriladi. Bu o'rinda uzoqlik va yaqinlik, ayriliq va mansublik, sog'inch va xotira kabi tushunchalar o'zaro bog'lanadi. Lirik qahramon Vatandan uzoqlashgani sari uning yurtga bo'lgan ehtiyoji va ruhiy bog'liqligi yanada kuchayadi. Demak, jismoniy masofa Vatan bilan ma'naviy aloqani susaytirmaydi, aksincha, sog'inch vositasida ushbu aloqaning yanada teranlashishiga xizmat qiladi.

She'rning falsafiy jihatdan muhim nuqtalaridan biri "Mening yuragimga tutashib yo'li, Mening ostonamdan boshlangan Vatan" misralarida mujassam. Bu yerda Vatan tushunchasi tashqi geografik makondan insonning ichki ruhiy olamiga ko'chadi. "Yurak" obrazi insonning hissiy va ma'naviy borlig'ini, "ostona" esa tashqi va ichki olam o'rtasidagi chegarani anglatadi. Vatan yo'lining inson yuragiga tutashishi uning shaxsiy "men"i va milliy-madaniy mansubligi o'rtasidagi uzviylikni ko'rsatadi. Natijada Vatan insondan tashqarida joylashgan makon emas, balki uning ichki dunyosi bilan chambarchas bog'langan ma'naviy borliq sifatida namoyon bo'ladi.

She'rning mazmuniy tuzilishida Vatan tushunchasining bosqichma-bosqich chuqurlashuvi kuzatiladi. Dastlab Vatan beshik va eshik obrazlari orqali insonning tug'ilishi va dunyoni anglash jarayoni bilan bog'liq makon sifatida tasvirlanadi. Keyingi bosqichda go'daklik, ilk qadam va boshqa xotiralar orqali u shaxsiy xotira makoniga aylanadi. "Ona

suti" bilan qiyoslash esa Vatan tushunchasini insonning ma'naviy va ruhiy shakllanishi bilan bog'laydi. Yakunda esa "yurak" va "ostona" obrazlari orqali Vatan insonning ichki borlig'i va o'zligi bilan birlashadi.

"Vatan va ostona" she'rida Guljamol Asqarova Vatan tushunchasini insonning tug'ilishi, hayotiy tajribasi, xotirasi, ruhiyati va o'zligini anglash jarayoni bilan uzviy bog'laydi. "Beshik", "eshik", "ona suti", "ilk qadam", "yurak", "ostona" kabi poetik obrazlar Vatan tushunchasining tashqi makondan ichki ma'naviy borliqqa tomon kengayishini ta'minlaydi. Shu jihatdan she'rda vatanparvarlik g'oyasi Vatanni shunchaki sevishtirish yoki unga sadoqat ko'rsatishdan iborat tuyg'u sifatida emas, balki insonning o'z mavjudligi va ma'naviy mansubligini anglash shakli sifatida talqin qilinadi. Bu esa Guljamol Asqarova poetikasida vatanparvarlik konseptining falsafiy jihatdan chuqurlashib borayotganini ko'rsatuvchi muhim poetik hodisadir.

Shoiraning 2026-yil 1-iyuldagi "Vatan bir!" she'rida:

"Har xomush chehrani kuldursang,  
Ruhingni nurlarga to'ldirsang,  
Qachonki nafsingni o'ldirsang,  
Oshiqsan — vujud yo'q, badan yo'q!" [7]

Mazkur misralarda Guljamol Asqarovaning vatanparvarlik konsepsiyasi bevosita Vatan obrazini tasvirlash orqali emas, balki insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti orqali ifodalangan. Shoiraning nazarida chinakam insoniylik, avvalo, boshqalarning dardiga befarq bo'lmaslik, g'amgin insonning ko'nglini ko'tarish, ruhni ezgulik va poklik bilan boyitishdan boshlanadi. "Nafsi o'ldirish" esa insonning xudbinlik, manfaatparastlik va manmanlik kabi illatlardan voz kechib, o'zligini ma'naviy jihatdan yuksaltirishini anglatadi. Shu ma'noda, she'rdagi "oshiq" obrazi oddiy muhabbat egasi emas, balki ruhiy kamolotga intilgan, o'z nafsini yenga olgan va ezgulikni hayotining asosiy mezoniga aylantirgan komil inson timsolidir. "Vujud yo'q, badan yo'q" ifodasi esa moddiy manfaatlardan ustun turuvchi ruhiy mavjudlikni anglatadi. Demak, shoiraning badiiy-falsafiy qarashlarida muhabbat, insonparvarlik va ma'naviy poklik yagona tushunchalar tizimini hosil qiladi. Bu jihat vatanparvarlik g'oyasining falsafiy transformatsiyasini ko'rsatadi: Vatanga muhabbat faqat yurtni ulug'lash yoki unga sadoqat bildirish bilangina cheklanmay, avvalo, Vatanga munosib inson bo'lish, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish va ma'naviy barkamollikka erishish talabi sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa shoiraning vatanparvarlik talqini insonparvarlik, axloqiy mas'uliyat va ruhiy poklanish g'oyalari bilan uyg'unlashadi.

"O'tarsan, otliq yo piyoda,  
Goh quvonch, goh qayg'ung ziyoda,  
Odamsan, Havosan dunyoda —  
Uyingdan boshqa bir Adan yo'q." [7]

Mazkur misralarda shoiraning dunyodagi mavjudligi, hayotning o'tkinchiligi va uy tushunchasining inson uchun ma'naviy makon sifatidagi mohiyatini falsafiy jihatdan yoritadi. "Otliq yo piyoda", "goh quvonch, goh qayg'u" kabi ifodalar inson hayotining turli holatlardan iborat ekanini, hayot yo'lining esa doimo harakat va o'zgarish jarayonida kechishini anglatadi. Inson hayotida quvonch va qayg'u bir-birini almashib boruvchi tabiiy holatlar sifatida talqin qilinadi. "Odamsan, Havosan dunyoda" misrasida esa insonning ibtidoiy va ruhiy manbalariga ishora qilinadi. Izohda qayd etilganidek, "Adan" Odam Ato va Momo Havo yashagan jannat bog'i ma'nosida qo'llangan. Shu asosda "uy" tushunchasi oddiy yashash joyidan yuksalib, insonning o'zligini his qiladigan, ruhiy xotirjamlik va daxldorlikni topadigan muqaddas makon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "Uyingdan boshqa bir Adan yo'q" misrasi parchaning falsafiy mazmunini umumlashtiradi. Shoiraning "uy"ni inson uchun jannatga qiyoslab, uning Vatan tushunchasi bilan ma'naviy yaqinligini yuzaga chiqaradi. Bunda uy tor ma'nodagi xonadon emas, balki insonning ildizi, Vatani, tug'ilib-o'sgan muhiti va ruhiy mansublik makonini ifodalashi mumkin. Shunday qilib, vatanparvarlik g'oyasi bu misralarda yurtga bo'lgan bevosita da'vat orqali emas, balki insonning o'z makoniga, o'z ildiziga va ma'naviy manziliga bo'lgan daxldorlik tuyg'usi orqali ifodalanadi.

"Ko'ngilni ovlasang, azizim,  
Zaringni tovlasang, azizim,  
Yer ostini kovlasang, azizim —  
Odamdan bebaho ma'dan yo'q..." [7]

Mazkur misralarda Guljamol Asqarova insonning eng oliy va bebaho qadriyat ekanligi haqidagi falsafiy qarashni ilgari suradi. "Ko'ngilni ovlash", "zaringni tovlash", "yer ostini kovlash" kabi obrazlar orqali inson hayotida moddiy boylik, tashqi manfaat va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat ochib beriladi. Shoiraning qancha moddiy boylik izlanmasin, uning insonning o'zi bilan tenglasha olmasligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "Odamdan bebaho ma'dan yo'q" misrasi parchadagi asosiy falsafiy xulosani ifodalaydi. Bu yerda "ma'dan" tushunchasi ramziy ma'noda qo'llanib, yer qa'ridagi qimmatbaho boyliklardan ham insonning qadri yuqori ekanini anglatadi. Demak, insonning bebaho boyligi uning moddiy imkoniyatlarida emas, balki qalbi, ruhiyati, tafakkuri, mehr-muhabbati va ezgulikka intilishida namoyon bo'ladi. Ushbu fikr vatanparvarlik g'oyasi bilan ham uzviy bog'lanadi. Chunki Vatanning haqiqiy boyligi uning yer osti va yer usti resurslaridagina emas, balki inson kapitali, xalqining ma'naviyati va insoniy fazilatlarini bilan belgilanadi. Shu jihatdan shoiraning vatanparvarlik talqinida tabiat boyliklarini ulug'lashdan ko'ra, insonni qadrlash va uning sha'nini yuksak qo'yish ustuvorlik kasb etadi. Ushbu misralarda vatanparvarlik g'oyasi insonparvarlik bilan uyg'unlashadi. Shoiraning yurtni sevishtirish, avvalo, uning eng katta boyligi bo'lgan insonni qadrlash, uning ko'ngliga yo'l topish va insoniy qadr-qimmatini asrashdan boshlanadi. Bu esa vatanparvarlik tushunchasining moddiy-geografik mazmundan ma'naviy-axloqiy mazmunga transformatsiyalanganini ko'rsatadi.

"Bor, yetti qit'aga ko'chib ko'r,

Osmonning toqiga uchib ko'rg,  
Ey shoh, ey gado, ey musofir —  
Vatan bir! Boshqa bir Vatan yo'q!" [7]

Ushbu misralarda Guljamol Asqarova Vatan tushunchasini insonning eng oliy, betakror va ajralmas ma'naviy qadriyati sifatida talqin qiladi. "Yetti qit'aga ko'chib ko'rg" va "osmonning toqiga uchib ko'rg" misralarida insonning dunyoning turli joylariga borishi, turli makonlarni ko'rishi mumkinligi ifodalanadi. Biroq makonning o'zgarishi insonning Vatanga bo'lgan ruhiy va ma'naviy bog'liqligini o'zgartira olmaydi. "Ey shoh, ey gado, ey musofir" murojaati orqali esa ijtimoiy mavqe, boylik yoki hayot sharoitidan qat'i nazar, barcha insonlar uchun Vatan tushunchasining birdek muhimligi ta'kidlanadi. Shoh ham, gado ham, musofir ham o'z Vataniga nisbatan daxldorlik tuyg'usini saqlaydi. Shu jihatdan Vatan insonlarni ijtimoiy farqlaridan qat'i nazar birlashtiruvchi umumiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

"Vatan bir! Boshqa bir Vatan yo'q!" misrasi esa she'rning asosiy falsafiy xulosasini ifodalaydi. Bu takror Vatan tushunchasining yagonaligi, betakrorligi va inson hayotidagi beqiyos o'rnini kuchaytiradi. Inson boshqa yurtlarda yashashi, dunyoning istalgan nuqtasiga borishi mumkin, ammo uning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ruhiy ildizlari bilan bog'liq Vatanning o'rnini boshqa makon bosa olmaydi. Shu sababli ushbu misralarda vatanparvarlik g'oyasi hududiy tushunchadan ma'naviy-falsafiy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Shoira Vatanga sadoqatni insonning tug'ilib-o'sgan makoniga bo'lgan oddiy mehr sifatida emas, balki uning o'zligi, xotirasi va ma'naviy mansubligini belgilovchi fundamental qadriyat sifatida talqin qiladi. Demak, dunyoni kezish mumkin, ammo Vatanni almashtirib bo'lmaydi; insonning ruhiy ildizi baribir o'z Vataniga bog'liq holda qoladi.

#### **Xulosa.**

Guljamol Asqarovaning "Da'vat", "Vatan va ostona" hamda tahlil qilingan boshqa she'riy parchalarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, shoiraning vatanparvarlik konsepsiyasi bir qatlamli va faqat hissiy mazmun bilan chegaralanmaydi. Unda Vatan tushunchasi axloqiy, ma'naviy, ontologik, ekzistensial va aksiologik mazmunlar bilan izchil boyib boradi. Shu jihatdan Asqarova poetikasida vatanparvarlik g'oyasi tashqi da'vatdan insonning ichki borlig'i va o'zligini anglash darajasigacha rivojlanadigan murakkab falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shoiraning poetikasida Vatan tushunchasi makondan qadriyatga, qadriyatdan ma'naviy e'tiqodga, ma'naviy e'tiqoddan esa insonning ontologik mavjudligi bilan bog'liq tushunchaga aylanadi. Shu sababli uning vatanparvarlik haqidagi qarashlari an'anaviy romantik-da'vatkorlik chegaralaridan chiqib, insonning kimligi, qayerga mansubligi, qanday qadriyatlar asosida yashashi va o'zidan keyingi avlod oldidagi mas'uliyati kabi fundamental falsafiy masalalarni qamrab oladi. Vatanparvarlik g'oyasining tashqi-hissiy undovdan ichki-ma'naviy va ontologik anglashga tomon bunday transformatsiyasi Guljamol Asqarova ijodining muhim falsafiy-estetik xususiyatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Asqarova, Guljamol. Uyg'otuvchi alla: She'rlar. — T.: «Sharq», 2007. — 112 b.
2. Aliyeva Dilbar Valiyevna. (2024). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BADIY KITOBNING O'RNI. PEDAGOGS, 57(1), 65–67. Retrieved from pedagogs.uz
3. O. Hasanova. GULJAMOL ASQAROVA SHE'RIYATIDA ADABIY-ESTETIK KATEGORIYALAR. (2025). Nauka va innovatsiyalar ta'lim tizimida, 4(5), 5–9. DOI
4. O. Maqsudova. (2025). GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARINING BADIY TALQINI, 50, 195–198. Retrieved from pedagogs.uz
5. S. Muslihiddinova. Guljamol Asqarova she'riyatida lirik kechinmalar talqini. (2024). Xalqaro ilmiy tadqiqotchilar jurnali, 9(1), 71–75. DOI
6. [Guljamol Asqarova. She'rlar https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/guljamol-asqarova-she'rlar.html](https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/guljamol-asqarova-she'rlar.html)
7. Guljamol Asqarova — Telegram [https://t.me/Guljamol\\_Asqarova](https://t.me/Guljamol_Asqarova)